

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA FONETIK BILIMLAR BERISHDA
INTERFAOL USULLAR**

**Parpiyev Odil Olimovich, Qo‘qon universiteti
Filologiya kafedrası dotsent v.b.**

odilparpiyev71@gmail.com, tel.: +998996193971

ORCID: 0000-0002-7398-7155

**Haydarova Soliyaxon, Qo‘qon universiteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi**

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21159845>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinif o‘quvchilariga fonetik bilimlarni o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Fonetika ona tili ta’limining muhim bo‘limlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratish, unli va undosh tovushlarni farqlash hamda yozma nutqda xatolarga yo‘l qo‘ymaslik ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Maqolada aqliy hujum, klaster, Ven diagrammasi, rol o‘ynash va INSERT kabi interfaol usullarning fonetika darslarida qo‘llanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu usullar orqali o‘quvchilarning darsga qiziqishi, mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi va mavzuni ongli o‘zlashtirishi kuchayishi mumkinligi asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: fonetika, boshlang‘ich ta’lim, interfaol usullar, unli tovushlar, undosh tovushlar, klaster, aqliy hujum, Ven diagrammasi, rol o‘ynash, nutqiy faollik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещается значение использования интерактивных методов при обучении фонетическим знаниям учащихся начальных классов. Фонетика является одним из важных разделов обучения родному языку и занимает особое место в формировании у учащихся навыков правильного произношения, деления слов на слоги, различения гласных и согласных звуков, а также предупреждения ошибок в письменной речи. В статье проанализированы возможности применения таких интерактивных методов, как мозговой штурм, кластер, диаграмма Венна, ролевая игра и метод INSERT на уроках фонетики. Кроме того, обосновано, что использование данных методов способствует повышению интереса учащихся к уроку, развитию самостоятельного мышления, речевой активности и осознанному усвоению учебного материала.

Ключевые слова: фонетика, начальное образование, интерактивные методы, гласные звуки, согласные звуки, кластер, мозговой штурм, диаграмма Венна, ролевая игра, речевая активность.

ABSTRACT

This article highlights the importance of using interactive methods in teaching phonetic knowledge to primary school pupils. Phonetics is one of the essential branches of mother tongue education and plays a significant role in developing pupils' skills in correct pronunciation, syllable division, distinguishing vowels and consonants, and preventing errors in written speech. The article analyzes the possibilities of applying such interactive methods as brainstorming, clustering, the Venn diagram, role-playing, and the INSERT method in phonetics lessons. It is also substantiated that the use of these methods can



enhance pupils' interest in the lesson, develop their independent thinking, increase speech activity, and promote conscious mastery of the topic.

Keywords: phonetics, primary education, interactive methods, vowel sounds, consonant sounds, clustering, brainstorming, Venn diagram, role-playing, speech activity.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili fanini samarali o'qitish o'quvchilarning keyingi bilim olish bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunida ta’lim jarayonida shaxsning intellektual, ma’naviy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan [1]. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini mazmunli, qiziqarli va o'quvchi faolligiga asoslangan holda tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida fonetika bo'limi alohida o'rin tutadi. Chunki tovush, harf, bo'g'in, urg'u, unli va undosh tovushlar haqidagi dastlabki bilimlar o'quvchining savodxonligi, talaffuzi va imlo ko'nikmalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Professor S. Matchonov o'quvchilarda og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish muhim vazifa ekanligini ko'rsatadi [2].

Boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida shuni kuzatish mumkinki, ayrim boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetik tushunchalarni mexanik ravishda yodlab oladilar, biroq ularning mazmunini yetarlicha anglab yetmaydilar. Masalan, unli va undosh tovushlarning farqini aytib bera olgan bola ba'zan ularni so'z tarkibida ajratishda qiynaladi. Yoki bo'g'in haqida ma'lumotga ega bo'lsa-da, ko'p bo'g'inli so'zlarni to'g'ri bo'g'inlarga ajratishda xatoga yo'l qo'yadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasiga oid manbalarda ham fonetik bilimlarni faqat qoidalar orqali emas, balki amaliy mashqlar, kuzatish, taqqoslash va nutqiy faoliyat asosida o'rgatish zarurligi ta'kidlanadi [2].

Shu jihatdan interfaol usullar fonetikaga doir darslarini jonlantirish, o'quvchilarni mavzuga faol jalb etish va bilimlarni amaliy faoliyat orqali mustahkamlashda samarali vosita bo'la oladi. Interfaol ta'limda o'quvchi faqat tinglovchi emas, balki izlovchi, fikrlovchi, taqqoslovchi va xulosa chiqaruvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. Pedagogik texnologiyalarga oid ilmiy-metodik adabiyotlarda interfaol metodlarning asosiy xususiyati o'quvchi faolligi, hamkorlik, muloqot va mustaqil fikrlashni rivojlantirish bilan izohlanadi [3].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olganda, interfaol usullardan foydalanish yanada muhimdir. Kichik maktab yoshidagi bolalar ko'proq o'yin, suhbat, tasvir, harakat va guruhiy faoliyat orqali bilimni yaxshi o'zlashtiradilar. Psixologik tadqiqotlarda ham bu yoshdagi bolalarda bilish jarayoni ko'rgazmalilik, qiziqish, taqlid, faol harakat va muloqot bilan chambarchas bog'liq ekani qayd etiladi [4]. Demak, fonetika kabi ayrim o'quvchilar uchun nazariy tuyulishi mumkin bo'lgan mavzularni interfaol usullar orqali tashkil etish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fonetik bilimlarni egallash darslarida foydalanish mumkin bo'lgan samarali interfaol usullardan biri aqliy hujum usulidir. Bu usul, ayniqsa, yangi mavzuni boshlashda yaxshi natija beradi. Masalan, o'qituvchi dars boshida “Unli tovushlar qanday hosil bo'ladi?”, “Undosh tovushlarni talaffuz qilganda qanday to'siq paydo bo'ladi?”, “Nima uchun ayrim tovushlar bo'g'in hosil qiladi?” kabi savollarni beradi. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin aytadilar. Bu jarayonda noto'g'ri javoblar darhol rad etilmaydi, aksincha, ular keyingi tushuntirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik texnologiyalar haqidagi manbalarda aqliy hujum o'quvchilarning erkin fikrlashi, faolligi va mavzuga qiziqishini oshiruvchi samarali metodlardan biri sifatida ko'rsatiladi [5].

Nutq tovushlarini amaliy o’zlashtirishga doir mavzularini o’rgatishda klaster usuli ham katta ahamiyatga ega. Bu usul orqali o’quvchilar o’z bilimlarini tizimlashtirishni o’rganadilar. Masalan, doskaning o’rtasiga “Tovushlar” so’zi yoziladi. So’ngra undan “unli tovushlar”, “undosh tovushlar”, “jarangli undoshlar”, “jarangsiz undoshlar”, “bo’g’in”, “urg’u” kabi tarmoqlar chiqariladi. O’quvchilar har bir tarmoq bo’yicha misollar keltiradilar. Bunday mashg’ulot o’quvchilarga mavzuni alohida-alohida emas, balki o’zaro bog’liq holda tushunishga yordam beradi. Jumladan, 2-sinf ona tili darslarida klaster usulidan foydalanish samarali natijani beradi [6]. Klaster usuli o’quvchilarda mantiqiy bog’lanishlarni ko’ra olish, tushunchalarni guruhlash va umumlashtirish ko’nikmalarini shakllantirishi bilan ahamiyatlidir.

Ven diagrammasi usuli esa unli va undosh tovushlarni taqqoslashda samarali qo’llaniladi. O’quvchilar ikki doira orqali unlilar va undoshlarning o’ziga xos belgilarini ajratadilar. Masalan, unlilar talaffuzida havo oqimi og’iz bo’shlig’ida to’siqqa uchramaydi, ular bo’g’in hosil qiladi. Undosh tovushlarni aytganda esa havo oqimi ma’lum to’siqqa duch keladi. Har ikki guruhga xos umumiy jihat sifatida esa ularning nutq tovushi ekani, so’z ma’nosini farqlashda ishtirok etishi ko’rsatiladi. Taqqoslashga asoslangan topshiriqlar o’quvchilarda tahlil qilish, umumlashtirish va farqlash ko’nikmalarini rivojlantiradi [3].

Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun eng qiziqarli usullardan yana biri rol o’ynash usulidir. Bu usul orqali fonetik tushunchalar jonlantiriladi. Masalan, bir o’quvchi “A” tovushi rolini bajarib, “Men A tovushiman. Men unli tovushman. Meni aytganda og’iz keng ochiladi. Men bo’g’in hosil qila olaman”, — deb o’zini tanishtiradi. Boshqa o’quvchi esa “B” tovushi rolini olib, “Men undosh tovushman. Meni talaffuz qilganda lablar ishtirok etadi”, — deb izoh beradi. Bu usul o’quvchilarning ijodkorligini, nutqiy faolligini va mavzuga qiziqishini oshiradi. Ta’lim jarayonida o’yin va rolli faoliyatdan foydalanish kichik yoshdagi o’quvchilarning qiziqishini kuchaytirib, bilimni tabiiy ravishda o’zlashtirishiga yordam beradi [7].

Fonetika darslarida INSERT usulidan ham foydalanish mumkin. Bu usul ko’proq matn bilan ishlash jarayonida qo’l keladi. O’quvchilarga fonetikaga oid qisqa matn beriladi. Ular matnni o’qish davomida belgilardan foydalanadilar: “+” – bilgan ma’lumotim, “!” – yangi ma’lumot, “?” – tushunmagan yoki savol tug’dirgan joy. Dars oxirida o’quvchilar “?” belgisi qo’yilgan fikrlar yuzasidan savol beradilar va sinf bilan birgalikda muhokama qiladilar. INSERT usuli o’quvchini matnni shunchaki o’qishga emas, balki uni anglash, baholash va o’z savollarini shakllantirishga yo’naltiradi.

Interfaol usullardan foydalanishda o’qituvchi darsning maqsadi, mavzu mazmuni va o’quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Har bir usulni istalgan mavzuda bir xil qo’llash yaxshi natija bermasligi mumkin. Masalan, aqliy hujum ko’proq dars boshida o’quvchilarning oldingi bilimlarini aniqlash uchun qulay bo’lsa, klaster mavzuni tushuntirish yoki mustahkamlashda foydalidir. Ven diagrammasi taqqoslash talab qilinadigan mavzularda, rol o’ynash esa ijodiy va amaliy mashg’ulotlarda yaxshi samara beradi. INSERT usuli esa o’quvchilarning mustaqil o’qish va tushunish faoliyatini kuchaytiradi.

Quyidagi jadvalda fonetika darslarida ayrim interfaol usullardan foydalanish imkoniyatlari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval
Interfaol usullarni fonetik bilimlarni o’rganishda qo’llash

t/r	Interfaol usul nomi	Amalda qo'llash bosqichi	Asosiy vazifasi	Kitiladigan natija
1	Aqliy hujum	Dars boshida	Mavzuga qiziqish uyg'otish	O'quvchilarda fikrlash faollashadi
2	Klaster	Dars boshi va o'rtasida	Bilimlarni tizimlashtirish	Mavzu yaxlit tushuniladi
3	Venn diagrammasi	Dars o'rtasida	Tushunchalarni taqqoslash	Farqli va umumiy jihatlar anglanadi
4	Rol o'ynash	Mustahkamlash bosqichida	Bilimni amaliy faoliyatga aylantirish	Nutqiy faollik va ijodkorlik rivojlanadi
5	INSERT	Dars oxirida yoki matn bilan ishlashda	Mustaqil o'qish va tahlil qilish	O'zini nazorat qilish ko'nikmasi shakllanadi

Jadvaldan ko'rinadiki, har bir interfaol usulning o'ziga xos vazifasi mavjud. Ularni to'g'ri tanlash va dars jarayoniga moslashtirish o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Ayniqsa, fonetika kabi ayrim o'quvchilar uchun quruq va nazariy tuyulishi mumkin bo'lgan mavzularni qiziqarli shaklda tashkil etish muhimdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantirish, nazariy bilimni amaliy mashqlar bilan bog'lash va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Interfaol usullarning yana bir afzalligi shundaki, ular o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi. Guruhda ishlash, juftlikda fikr almashish, bir-birining javobini tinglash va to'ldirish orqali bolalarda muloqot madaniyati ham shakllanadi. Bu esa faqat fonetik bilimlarni emas, balki umumiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ona tili o'qitish metodikasida ham o'quvchining nutqiy faolligini oshirish, fikrini og'zaki va yozma shaklda ifodalashga o'rgatish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilanadi [2].

Shu bilan birga, interfaol usullarni qo'llashda ayrim jihatlariga e'tibor berish zarur. Avvalo, o'qituvchi vaqtni to'g'ri taqsimlashi kerak. Chunki kichik yoshdagi o'quvchilar faol topshiriqlarga berilib ketib, darsning asosiy maqsadidan uzoqlashib qolishlari mumkin. Ikkinchidan, har bir o'quvchining ishtiroki ta'minlanishi lozim. Faqat faol o'quvchilar javob berib, tortinchoq bolalar chetda qolib ketmasligi uchun topshiriqlar guruhli, juftlikda yoki individual shaklda navbat bilan berilishi maqsadga muvofiqdir. Uchinchidan, interfaol usullar an'anaviy tushuntirishni butunlay inkor etmaydi. Aksincha, ular tushuntirish, ko'rsatish, mashq qildirish va mustahkamlash bilan uyg'unlashgandagina yaxshi natija beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga fonetik bilimlarni berishda o'qituvchining mahorati ham muhim o'rin tutadi. O'qituvchi darsni faqat qoidani aytish bilan emas, balki o'quvchini fikrlashga undash, misol topishga yo'naltirish, tovushlarni talaffuz qildirish va ularni so'z tarkibida tahlil qildirish orqali tashkil etishi kerak. Masalan, “olma”, “ona”, “kitob”, “bog”, “gul” kabi sodda so'zlar asosida tovush-harf tahlili o'tkazish, so'zlarni bo'g'inlarga ajratish, unli va undoshlarni ajratib yozish kabi mashqlar interfaol shaklda bajarilsa, o'quvchilar mavzuni yaxshiroq o'zlashtiradilar.

Demak, fonetika darslarida interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarni darsga jalb etish, ularda mustaqil fikrlash va nutqiy faollikni rivojlantirish, mavzuni ongli

o’zlashtirishga erishishda muhim vosita hisoblanadi. Bunday usullar boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun darsni qiziqarli, tushunarli va amaliy mazmunga ega qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang’ich sinf o’quvchilariga fonetik bilimlarni o’rgatishda interfaol usullardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Aqliy hujum, klaster, Ven diagrammasi, rol o’ynash va INSERT kabi usullar o’quvchilarning darsdagi faolligini kuchaytiradi, mavzuni taqqoslash, tahlil qilish va amaliy qo’llash imkonini yaratadi. Ayniqsa, unli va undosh tovushlar, bo’g’in, urg’u, tovush-harf munosabati kabi mavzularni o’rgatishda bunday usullar samarali hisoblanadi.

Interfaol metodlardan foydalanish o’quvchilarning faqat fonetik bilimlarini emas, balki og’zaki nutqi, mustaqil fikrlashi, hamkorlikda ishlashi va o’z fikrini erkin bayon etish ko’nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu sababli fonetika darslarida interfaol usullarni an’anaviy metodlar bilan uyg’un holda qo’llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. 23.09.2020-yildagi O’RQ-637-son.
2. Matchonov S., Bakiyeva H., G’ulomova X., Yo’ldosheva Sh., Xolboyeva G.. Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi. Darslik. Toshkent. – 2021-yil.
3. Yo’ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O’qituvchi, 2018.
4. G’oziyev E. Psixologiya. Toshkent: O’qituvchi, 2010.
5. Xoliqov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
6. Kuranov S. Ona tili: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. I qism.–Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023-y. -88 b.
7. Kuranov S. Ona tili: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. II qism.–Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023-y. -88 b.
8. Gaynazarova, G. A., Matnazarova, K. O., & Parpiyev, O. O. (2023). Factors and methods of preparing students for professional activities in the conditions of individual training. *Academia Repository*, 4(12), 131-135.
9. Olimovich, P. O. (2023). RIVOJLANISH VOSITASI SIFATIDA TRIZ TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 24(1), 17-20.
10. Mushtariy, O. (2023). Odiljon P. Boshlang ‘ich ta’lim tizimiga zamonaviy yondashuvlar. *qo ‘qon universiteti xabarnomasi*, 640-644.
11. G’ulomjon filolog: NO, P. The Harmony Of Characters’ Speech And Psychological Portrayal In Nabijon Boqi’s “A Tale Of One Love”.
12. G’ulomjon filolog: Khodjaev, S., & Abdupattaev, G. (2022). The Problem of Era and Hero in the Work of Murad Muhammad Dost. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(12), 77-81.